

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
FARMOYISHI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KEÑESINIŇ  
BIYLIĞI**

2023 - yil 23 - may

106-13-0-F/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 73-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining Raisi – Fuqaro muhofazasi Boshlig'ining 2023-yil 2-maydagi 6-sonli Buyrug'i hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 18-maydagi "Umumta'lim maktablari va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari o'rtasida "Yosh qutqaruvchi" musobaqalarining Respublika bosqichini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha" 05/15-199-sonli choratadbirlar dasturining 10-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasining 2023-yil 12-maydagi 127-sonli xati va Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligining 2023-yil 17-maydagi SM/12-02/1855-sonli xulosasini inobatga olib:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi (M.Sodiqov) "Yosh qutqaruvchi" musobaqasining Jizzax viloyatida o'tkaziladigan yakuniy final bosqichiga boradigan o'quvchi yoshlar hamda ularning murabbiylarining safar xarajatlari (*transport, yotoq va oziq-ovqat*)ni qoplash uchun zarur bo'lgan 18 720 000 so'm (*o'n sakkiz million etti yuz yigirma ming*) so'm mablag'ni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining zaxira jamg'armasi hisobidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasiga qonunchilikda belgilangan asoslarda va tartibda ajratish choralarini ko'rsin.

2. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (N.Kayupov) ajratilgan mablag'ning qonunchilikda nazarda tutilgan asoslarda va tartibda, maqsadga muvofiq sarflanishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining davlat moliyaviy nazorati Bosh boshqarmasi Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat moliyaviy nazorati boshqarmasidan (B.Utambetov) yuqorida ko'rsatilgan ishlarga ajratilgan mablag'larning qonunchilikda o'rnatilgan asoslarda va tartibda, maqsadga muvofiq ishlatilishini nazorat qilish so'ralsin.

4. Mazkur farmoyish ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari A.Daniyarov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F. Ermanov**